

G'ARBIY YEVROPA MUSIQASIDA KLASSIK VA ROMANTIK DAVRLAR

Muallif: Termiz davlat Pedagogika instituti

Magistratura bo'limi Musiqa ta'limi va san'at

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

To'rayeva Mohigul Zahriddin qizi

Ilmiy rahbar: Termiz davlat Pedagogika instituti

Musiqa mahorati va madaniyati kafedrasida

katta o'qituvchisi, dots.v.b.

Raxmatullayev Xumoyun Shafoatovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arbiy Yevropa 1750- yildan 1820-yilgacha Klassik va 1810-yildan 1900-yilargacha davom etgan Romantik davrlar, ushbu davrlarda yashab ijid qilgan kompozitorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: G'arbiy Yevropa, klassika, romantizm, Motsart, Gaydin, Bethoven, Shopen, List, Shubert.

Abstract: This article provides information about the Classical period (1750–1820) and the Romantic period (1810–1900) in Western Europe, as well as the musical works created by composers who lived and worked during these periods.

Keywords: Western Europe, Classic, Romanticism, Mozart, Haydn, Beethoven, Chopin, Liszt, Schubert.

Аннотация: В данной статье представлена информация о классическом периоде (1750–1820 гг.) и романтическом периоде (1810–1900 гг.) в Западной Европе, а также о музыкальных произведениях, созданных композиторами, жившими и творившими в эти эпохи.

Kirish: Inson tomonidan yozuvning ixtiro qilinishi va o'z yozuviga ega bo'lgan madaniyat o'choqlarining paydo bo'lguniga qadar o'tgan barcha davrlar, tarixdan oldingi davrlar hisoblanib, ushbu davrlarga oid musiqa haqidagi topilgan barcha ma'lumotlar tarixdan oldingi davrlar musiqasi hisoblanadi[1; 1]. Shu kabi musiqiy davrlarning nomlanishi keyingi yuz va ming yilliklarda ham musiqashunoslar tomonidan ishlatilgan

bo`lib, ayniqsa eramizning ikkinchi ming yilliklarida bunday atamalar keng qo`llanildi. Shunday davr nomlaridan eng mashxurlari klassik va romantik davrlar bo`lib, shu nomdagi musiqiy oqimlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog`liq. Klassik hamda romantik davrda juda musiqa olamining muhim bastakorlari dunyoga keldi va yirik asarlar yaratdi. Har ikkala davr musiqada bir inqilobiy g`oya yotadi. 18-asrning ikkinchi yarmi va 19-asrning boshlarini qamrab olgan klassik davrda muvozanatli, xolis va qoidalarga asoslangan ifoda ustunlik qiladi. Musiqa ma`lum bir xalq qatlamiga qaratilgan. 19-asrga hukmronlik qilgan romantik oqim esa sof bir ifoda bilan jamiyatga singib ketgan, jamiyatning mulkiga aylangan.

Har ikkala davrda ham asarlarda hissiyotlilik asosiy o`rinda turadi va juda muhim bastakorlar o`z yirik asarlari bilan musiqaga o`lmas durdonalar baxsh etganlar.

Usullar: Tadqiqotda xorijiy va mahalliy manbalar, ilmiy maqolalar, statistik ma`lumotlar tahlil qilinib, jahon inskilopedyalari Andrew Barker. Eczacıbaşı Ilyasoğlu, Trigulovalarning ilmiy ishlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama: Klassik davr musiqasini tushunish uchun avvalo ushbu davrda shakllangan ijtimoiy tuzilishga, o`zgarishlarga va klassik davrdan oldingi bosqichga to`xtalish kerak. Shu tariqa klassik musiqaning ta`siri yanada yaqqol namoyon bo`ladi.

Klassik davrdan oldingi Barok davrida musiqa rivoji va tuzilishiga qaralsa quyidagi manzara ko`zga tashlanadi zodagon oilalar bastakorlarga maosh to`lab opera teatrlari ochishgan qisqasi bastakorlar homiylik tizimiga bog`liq bo`lgan. Barokko davrida musiqa deyarli zodagonlar didiga mos yo`naltirilgan edi. Bastakorlar asosan zodagonlarni xushnud etishga harakat qilishgan. Bastakorlarning konsertlari ham asosan saroylarda ijro etilgan. biroq klassik musiqa shakllana boshlashi bilan ushbu qattiq nazorat va rasmiy musiqa tili o`rnini shaxsiy erkinlikka asoslangan musiqiy ifoda egallay boshladi. Shu tariqa musiqa keng xalq ommasiga yetib bora boshladi. Klassik davr musiqasi tabiiy oqim bilan chiroyli sanalgan. Ushbu davrda Barok davridagi kabi bezakli va hashamatli ifoda o`rniga bevosita va oddiy uslub bilan tinglovchiga ta`sir qilish maqsad qilingan. Klassik davr musiqasi shu bilan birga xalqaro til bo`lishni ham maqsad qilgan. Shu munosabat bilan ushbu davrning eng mashhur bastakorlari sifatida Gluk, Haydn va Motsart esga olinadi.

“Klassitsizm” atamasi.- Bu san’at an’anasi va estetik yondashuvni belgilash uchun ishlatiladigan atamadir. Bu san’at tarixidagi eng murakkab tushunchalardan biridir. U bildirgan an’ana Yunon va Rim madaniyatiga borib taqaladi, ya’ni klassik Antik davrda shakllangan bo’lib, keyingi davrlarda antik asarlar namunasi sifatida davom etgan. Bu “klassik” an’ana bo’lib, klassitsizm eramizning 8-asridan 20-asrigacha deyarli barcha klassikdan keyingi san’at asarlarining doimiy xususiyati bo’lib qolgan. Ushbu atamaning faqat estetik doiradagi qo’llanilishi esa, uzoq davom etgan bu an’ananing ochiqlik, tartib va muvozanat kabi xususiyatlarini aks ettiruvchi uslub yoki bosqichlarini bildiradi. Bu ma’noda klassitsizm faqat san’atning ma’lum bir davriga tegishli bo’lib, miloddan avvalgi 5-asr Yunon san’ati, Uyg’onish davri Italiya san’ati va 17-18-asr oxirlaridagi Fransiya san’ati uchun xos xususiyat sifatida qaraladi.”[5;10]

“Klassik” so’zi shu bilan birga o’zidan keyingilar uchun mukammal namuna bo’la oladigan yuqori sifatli asarlar va bastakorlar uchun ham ishlatiladi. 18-asrning o’rtalarida qadimgi Yunon klassik san’ati bilan shug’ullangan va undan o’rnak olgan san’atkorlar qadimgi davrlarning “klassik” deb ataladigan madaniyatini o’zlariga namuna sifatida qabul qilganlar. Demak, biror narsaning klassik bo’lishi, uning o’xshashlari orasida eng yaxshisi ekanligini anglatadi. Musiqada klassitsizm 18-asrning ikkinchi yarmi va 19-asrning boshlarini o’z ichiga olgan davr musiqasini qamrab oladi. Ilyaso’g’liga ko’ra, musiqada “klassik davr” atamasi o’rniga “klassik uslub” (klassik stil) tushunchasidan foydalanish to’g’riroq bo’ladi.[8;66] Chunki bu uslub hozirgi kungacha o’z dolzarbligini yo’qotmagan va har bir davrda qo’llanilgan.

Klassik davrda uzun jumlalarga va bezakli ifodalarga asoslangan Barokko uslubi o’rnini yanada yorqin, sodda, aniq va ravon san’atga bo’shatdi. Bu uslub chuqur mazmunga ega, ammo oqimli va tushunarli edi.

Klassik davr ham bosqichma-bosqich rivojlanib bordi sonata shakli, musiqiy janrlarda qo’llanilishi mumkin bo’lgan ohangdor materialga bo’lgan Klassik afzallikni garmonik rivojlanish bilan uyg’unlashtirgan musiqa uchun tarkibiy tamoyillar to’plami. Sonata o’zi yakka va kamera musiqasining asosiy shakli bo’lib qolaverdi, keyinchalik Klassik davrda torli kvartet taniqli janrga aylandi. Ushbu davrda sinfonik orkestr uchun shakl yaratildi.

Terminologiyadan qat'i nazar, klassik musiqa klassitsizm davrining so'nggi ma'rifiy davri bilan bog'liq bo'lgan aniq tarixiy kelib chiqishiga ega. O'sha davr she'riyati va dramaturgiyasi antik mualliflar ijodiga asoslangan bo'lib, bu uslub musiqa madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatgan. Opera janrida va adabiy manbalar bilan bog'liq bo'lgan boshqa musiqiy yo'nalishlarda uchlik - vaqt, harakat va joy kuzatildi. Oratoriyalar, kantatalar 17-19-asrlarning o'ziga xos standarti bo'lgan klassitsizm tamg'asini oldi. Opera spektakllarida libretto ustunlik qilgan antik davr asosida yozilgan.

Klassizm davri bastakorlari Iogann Sebastyan Bax o'g'illari Kristof Glyuk bilan italyan va Mangeym operasi vakillari Venani tuzdilar. Klassik maktab, unga Gaydin, Motsart va Betxoven ham kirgan. Bu ustalar ijodida simfoniya, sonata, cholg'u asarlarining klassik shakllari paydo bo'lgan. Keyinchalik kamera ansambllari, pianino triosi, turli torli kvartet va kvintetlar paydo bo'ldi. Klassik davrning oxiridagi Vena klassik musiqasi keyingi davrga, romantizm davriga silliq o'tdi. Ko'pgina bastakorlar yanada erkinroq tarzda bastalay boshladilar, ularning ishlari hozir va keyin o'tmishning akademik qonunlaridan tashqariga chiqdi. Asta-sekin ustalarning innovatsion intilishlari "namunali" deb topildi.



Klassik davrda barakali ijod qilgan konpozitorlarimiz.

Kristof Villibald fon Gluk (1714-1787)

1714-yilda Bohemiyada tug‘ilgan. U opera san’atida butun klassik davr davomida amal qiladigan opera turini yaratgan. Asarlarida klassitsizm ta’sirlari to‘liq ko‘rinadi. Klassitsizمنىng tug‘ilishini ifodalovchi bastakor, 4 yillik ta’limidan so‘ng birinchi operasi “Artasere” ni bastalagan. Ushbu asar 1741-yilda sahnalashtirilgan va katta muvaffaqiyat qozongan. Keyinchalik “Dometrio”, “Demofonte”, “Tigrane”, “Sononisb”, “İpermestra” va “Poro” nomli operalarni yozgan.

Frans Jozef Gaydn (1732-1809)

Frans Jozef Gaydn Avstriyaning kichik bir qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning hayotida Vena shahridagi Avliyo Stefan cherkovi muhim rol o‘ynagan. U ilk musiqiy ta’limini shu yerda olgan va musiqaga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirgan.

Tarixda Vena klassik maktabining uch buyuk bastakoridan biri sifatida tanilgan Gaydn, 6 yoshidan boshlab o‘qish, yozish bilan birga skripka va truba chalishni ham o‘rgangan. U o‘zining qat’iyati, tinimsiz mehnati va tabiiy iste’dodi yordamida musiqaning texnik va estetik qoidalarini mustaqil o‘rgangan.

1751-yilda Komediya teatri xonandalaridan Felix Kurz, Gaydinning kichik bir serenadasini tinglab, undan kulgili opera yozib berishni so‘ragan. Gaydn shu asosda “Topal Shayton” nomli komik operani bastalagan va bu asar keyingi kuni sahnalashtirilgan. Gaydn klassik davrda simfoniya va torli cholg‘ular kvarteti janrlarini shakllantirgan va o‘zining ulkan asarlari bilan bu davr musiqasiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Wolfgang Amadey Motsart (1756-1791)

Vena klassik maktabining yana bir buyuk bastakori bo‘lgan Motsart 1756-yil 27-yanvarda Salzburg shahrida tug‘ilgan. Musiqa tarixining “daho bolasi” sifatida tanilgan u bolaligidan boshlab favqulodda iste’dodi bilan ajralib turgan. Uning otasi ham musiqachi bo‘lib, Motsart unga ergashgan va yoshligidanoq otasining klavsenida chalishni o‘rganib, musiqaning sehrli olamiga sho‘ng‘igan.

Motsart 600 dan ortiq asarlar yaratgan bo‘lib, bu ijodiy meros ko‘plab bastakorlarga ilhom manbai bo‘lgan. U hayoti davomida turli qiyinchiliklarni boshdan kechirgan bo‘lsa-da, bu uning musiqasiga ta’sir qilmagan. Uning musiqasi mutlaqo sof va beg‘araz san’at namunasi hisoblanadi.

Motsart o'z ijodida klassitsizmni to'liq aks ettirgan haqiqiy klassik bastakor edi. Ko'plab san'atkorlarda romantik moyillik sezilsada, Motsart bu ta'sirdan yiroq bo'lgan. Musiqashunos Ahmet Sayning fikricha, Motsart Gaydindan oldin klassitsizm ramzi sifatida e'tirof etilgan. Musiqashunos Ilhan Mimaro'g'lu esa Motsart haqida: "Gaydn yoki Betxoven aksincha, u tabiatni sevuvchi inson emasdi, tabiat go'zalliklariga e'tiborsiz qolgani kuzatiladi." deb ta'kidlaydi.

Ludvig Van Betxoven (1770-1827)

Betxoven 1770-yil 16-dekabrda Germaniyaning Bonn shahrida tug'ilgan. U klassik davr bilan romantik davrni bog'lovchi ko'prik sifatida qaraladi. Betxoven klassik davr merosini shunchalik romantik davr asoslariga singdirganki, ba'zi tarixchilar uni klassik davrga, boshqalari esa romantik davrga tegishli deb bilishadi. Ba'zilar uchun u romantizmning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Betxovenning nomi butun XIX asr davomida musiqa tarixida alohida o'rin tutgan. U ikki davr orasidagi o'zgarishlarni o'z asarlarida aks ettirgan va shuning uchun bahs-munozarasiz muhim ko'prik va innovator hisoblanadi. Betxoven o'zidan keyingi avlodlar uchun katta namuna bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli u ijtimoiy, estetik va badiiy jihatdan odamlarni o'z atrofida birlashtira olgan noyob bastakor edi. Uning psixologik jihati qarama-qarshiliklarga to'la bo'lib, bu uning san'atida chuqur his-tuyg'ular bilan ifodalangan. Uning asarlarida romantik unsurlar aralashgan bo'lsa-da, u klassik uslubda qolgan. Uning musiqasida romantik musiqaning jo'shqin va hissiyotga boy ifodasi uchragani sababli, ba'zida "Betxoven klassik bastakormi yoki romantik?" degan savol tug'ilgan.

Betxoven va Motsart bir davr bastakorlari bo'lishiga qaramay, Betxoven romantik davr bilan yanada uyg'unroq deb hisoblanadi. Uning tabiatga bo'lgan muhabbati ham uning musiqasida muhim jihatlardan biri sifatida ta'kidlangan.

Leyla Pamir ushbu masalaga quyidagicha izoh bergan: "Bethoven musiqasidagi har bir mayda tafsilotni aniqlik bilan tuzish tarafdori bo'lgan va uning musiqasi tafsilotlarga bo'lgan e'tibor bilan ajralib turadi. Shu bois uning musiqasi tuzilish jihatidan puxta va aniq ifodalangan." [7;45] Romantik davrda musiqa.

19-asrga nom bergan davr – Romantizm davridir. Romantizm – "Men" tushunchasining, individuallikning rivojlangan shaklidir. Ushbu davrda "Men"

tushunchasi asarlarda keng o‘rin egallagan bo‘lib, ijod mahsullarining asosida subyektiv sezgirlik yotadi. Romantizm tasavvur, kuch, fantaziya muhim tushunchalar hisoblanadi.

Romantizm qadimgi fransuz tilidagi “Romance” (she‘r yozish) so‘zidan kelib chiqqan. 17 va 18-asr adabiyotida ertak, fantastik xususiyatlarni ifodalagan “Romance” so‘zi, realistik yondashuvga qarama-qarshi qo‘llanilgan. “Romance” so‘zining klassik davr adabiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti yo‘q. Ushbu atama “aniq qoliplardan xalos bo‘lish” ma‘nosini anglatadi. Shu sababli “Romantik” atamasi ham klassik xususiyatlardan farqli, cheksiz ijod erkinligiga ega, o‘ziga xos ifoda uslubiga ega bo‘lgan ijodiy mahsulotlarni anglatadi. Romantikasi o‘ziga tortuvchi mavzular klassik shaklga teskari bo‘lib, tun, yolg‘izlik, hayajon va shunga o‘xshash hissiyotlarni o‘z ichiga oladi. Romantik musiqa esa hissiyotlarga boy ifoda uslubiga ega. O‘tish davrining asosiy namoyandasi bo‘lgan Beethoven, klassik davr tajribalarini romantik davrga ko‘chirishda katta mahorat ko‘rsatgan bastakor hisoblanadi. Romantizm butun Yevropaga ta‘sir ko‘rsatgan musiqiy oqimni anglatadi. Romantizm faqatgina musiqa sohasidagina emas, balki rassomlik, falsafa, dizayn, she‘riyat va adabiyot kabi boshqa sohalarda ham katta ta‘sir ko‘rsatgan. Keyinchalik bu ta‘sir milliy san‘atga ham singib ketgan. Har bir davr musiqasida romantik unsurlar uchraydi. Uyg‘unligidagi o‘rnini aniqladi. Uning nazariyasiga ko‘ra, musiqa insonning ruhiy holatini muvozanatlashtirishi mumkin.

Antik davrda musiqa ko‘pincha diniy marosimlarda, teatr sahnalarida va jamoat hayotida ishlatilgan. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston tragediyalarida musiqa katta ahamiyat kasb etgan. Xor qo‘shig‘i va cholg‘ular sahna voqealariga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan, hissiyotni oshirgan. Rim imperiyasida esa musiqa ko‘proq ko‘ngilochar va harbiy maqsadlarda qo‘llanilgan. Rimliklar grek musiqasini qabul qilib, uni o‘z madaniyatlariga moslashtirganlar. Shu bilan birga, ularda katta amfiteatrlarda musiqiy tomoshalar tashkil etilib, bu madaniyatning jozibasini yanada oshirgan. Antik davr musiqasi nafaqat o‘sha davrda, balki keyingi asrlarda ham san‘at va madaniyat rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Bu davrda asos solingan nazariyalar va amaliyotlar keyingi musiqa tizimlarining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Shu bois, antik davr musiqasi madaniy merosimizning boy va unutilmas qismidir.

Yunoniston musiqasi ko'proq nazariy jihatdan yondashilgan bo'lib, falsafiy asosga ega. Yunon faylasuflari Pifagor, Platon va Aristotel musiqaga katta e'tibor qaratgan. Pifagor-musiqiy intervallar va matematika qonuniyatlarini o'rgangan va musiqa bilan matematikaning o'zaro bog'liqligini kashf etgan. Yunonlar musiqani inson ruhiyati va axloqiy tarbiyasiga ta'sir qiluvchi kuch deb bilishgan. Ushbu davrda musiqa nazariya kabi tushunchalar shakllangan. Yunon faylasuflari musiqani matematika bilan bog'lagan. Musiqa nazariyasininig yaratilishi (Pifagor musiqiy tovushlar matematikasini o'rgangan

Pragmatik yondashuv rim musiqasi amaliy jihatdan rivojlangan bo'lib, u asosan turli marosimlar, harbiy yurishlar va ommaviy tomoshalar uchun mo'ljallangan edi. Rimliklar musiqani ko'proq kundalik hayotning bir qismi sifatida qo'llaganlar. Rim musiqasi Yunoniston madaniyati ta'sirida shakllangan. Rimliklar yunon musiqiy tizimlarini va nazariyalarini o'zlashtirib, o'z ehtiyojlariga moslashtirganlar.

Barokko davri (XVII asr) musiqasi dramatik ifoda, emotsional chuqurlik va murakkablik bilan ajralib turadi. Ushbu davrda opera janri paydo bo'ldi, (XVI) asrda opera, kantata va oratoriya kabi shakllar rivojlandi. Polifoniya bilan bir qatorda monodiya (bitta asosiy ovoz) ham muhimlashdi. Barokko musiqasida Iogann Sebastyan Bax va Antonio Vivaldi kabi bastakorlar yetakchi rol o'ynadi. Ushbu davr musiqa tarixida nazariy va ijrochilik jihatidan yangi uslub va standartlarni belgilab berdi. Musiqa sohasida ilk tamal toshi qo'yildi.

Klassitsizm musiqasi uyg'unlik, soddalik va ravshanlikni asos qilib oldi. Simfoniya, sonata va kvartet kabi janrlar rivojlandi. Orkestrga katta e'tibor berildi. Bastakorlar orasida Wolfgang Amadey Motsart, Lüdvig van Bethoven va Yozef Haydn yetakchi bo'ldi. Ushbu davr musiqasi nazokat va tuzilmani birinchi o'ringa qo'ydi.

Romantizm musiqasi hissiyotlarning chuqur ifodasi va individualizmga asoslangan. Fantaziya, xalq motivlari va dramatik ifoda muhim bo'ldi. Simfonik poema va lirik qo'shiqlar kabi janrlar ommalashdi. Frederik Shopen, Franz List, Pyotr Chaykovskiy va Richard Vagner kabi bastakorlar romantik musiqaning yorqin vakillari hisoblanadi.

Xulosa: Ushbu maqoladan shuni hulosa qilib aytish mumkinki xar bir davrning oziga hos o'rni va mohiyati bordur .Bu davrlarda yashab ijod qilgan konpozitorlar esa

ushbu davrning asoschilari desak mubolag'a bo'lmaydi. Har ikki davrning ham musiqa janri o'ziga hos mohiyatga ega bo'lgan va tinglovchilar qalbidan joy egalagan.

Klassik va romantik davr ushbu xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi.

Klassik musiqalarda "shakl va tuzulma, muvozanat va soddalik, dinamika va kontrastlar, polifoniya va homofoniya, uyg'unligi"ga chuqur etibot qaratilgan.

Romantik davr esa "hissiyot va shaxsiy ekspressiya, orkestrning kengayishi, modulyatsiya va murakkab garmoniya, programmatik musiqa, virtuoslik.

Klassik davr musiqa san'atida intizom va muvozanat ustuvor bo'lsa, romantik davr musiqasi shaxsiy hissiyotlarni erkin ifodalashga yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmatullaev, X. (2023). Musiqaning kashf qilinishi haqidagi nazariyalar. tarixgacha bo'lgan davr. Solution of social problems in management and economy, 2(4), 70–75

2. Müzik Ansiklopedisi, Müzik Ansiklopedisi Yayınları Başkent Yayınevi, 4. Cilt, S 186. Ankara 1992

3. Trigulova A. X-Horijiy musiqa adabiyoti, darslik. Ilm ziyo nashriyoti 2009-yil

4. Andrew Barker – Greek Musical Writings (Yunon musiqiy falsafasi). ikkinchi nashr. 1984-1989-yillar.

5. Donald J. Grout va Claude V. Palisca – A History of Western Music. Yangi nashr. 2019-yil

6. Eczacıbaşı Sanat Ansiklopedisi, Yapı Endüstri Merkezi Yayınları, 2. Cilt, İstanbul, 1997. S. 10

7. John G. Landels – Music in Ancient Greece and Rome (Gretsiya va Rim musiqasi haqida). 1999-yil

8. Pamir, Leyla; a.g.e., S. 45

9. Ilyasoğlu, Evin; a.g.e., S. 66